

«“Mobil aloqa” toifasidagi hamkorlarga to'lovlarda keshbek” aksiyasi qoidalari».

29 sentyabr 2025 y.

““Mobil aloqa” toifasidagi hamkorlarga to'lovlarda keshbek” aksiyasi "Humans" Mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan, manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'chasi, 2B uy, STIR 306624856 (Humans) Humans Sodiqlik dasturi doirasida o'tkazilmoqda.

1. AKSIYA HAQIDA MA'LUMOT

1.1. Ushbu Qoidalarining matni bo'yicha bosh harf bilan yozilgan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalarining ma'nosi www.humans.uz saytida joylashtirilgan "Humans Pay" xizmatidan foydalanish Qoidalarida, Humans Sodiqlik Dasturi qoidalarida keltirilgan, ushbu Qoidalarda boshqa narsa nazarda tutilmagan bo'lsa.

1.2. Aksiya ishtirokchilari — "Humans Pay" xizmatining foydalanuvchilari bo'lib, Humans mobil ilovasida bank kartasini biriktirgan jismoniy shaxslar Mijozlar, Humans bilan Aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartnomasini tuzgan Mijozlar jismoniy shaxslar.

1.3. Aksiya o'tkazilish davri — 03.07.2025dan muddatsiz.

1.4. Aksiya o'tkazilish hududi — O'zbekiston Respublikasi.

2. AKSIYA TAVSIFI

2.1. Aksiyani o'tkazish davrida va ushbu Qoidalarga rioya qilgan holda, Aksiya ishtirokchilari Humans mobil ilovasida "Mobil aloqa" toifasidagi hamkorlar xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirganda quyidagi shartlar asosida keshbek olish imkoniyatiga ega bo'ladilar:

2.1.1. Mobil aloqa operatorlari (Humans emas) xizmatlari uchun to'lovga keshbek — to'lov miqdorining 2,5%.

2.1.2. Humans aloqa xizmatlari uchun 100 (yuz) ming so'mgacha to'lovga keshbek — to'lov miqdorining 2,5%, to'lov miqdori 100 (yuz) ming so'm va undan ortiq bo'lganda — keshbek miqdori to'lov miqdorining 3,5%.

2.1.3. Keshbek quyidagicha hisoblanadi: to'lov amalga oshirilgan kunda 2,5%, keyingi kunda — 1%.

2.2. Aksiyada "Humans Pay" xizmatining amaldagi Mijozlari bo'lgan, Humans xizmatidan foydalanishi to'xtatilmagan yoki yakunlanmagan Ishtirokchilar, shuningdek, boshqa Humans xizmatlarining amaldagi Mijozlari (ushbu Qoidalarining 1.2-bandiga muvofiq) ishtirok etishlari mumkin.

3. YAKUNIY QOIDALAR

3.1. Ushbu qoidalar Aksiya ishga tushgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Humans bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni o'zgartirish, Aksiyani bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi va bu haqida tegishli xabarni Humans Saytida e'lon qiladi. Chop etish sanasi tegishli ma'lumotni Humans Saytida joylashtirish sanasiga mos. Humans Saytida tegishli ma'lumot joylashtirilganda Qoidalar o'zgartirilgan, Aksiya esa uzaytirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi.

3.2. Ishtirokchi tomonidan Humans mobil ilovasida hamkorga amalga oshirilgan to'lov jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan oferta hisoblanadigan Qoidalar bilan to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi.